

QASHQADARYO VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO‘YICHA MA’LUMOT

2020- yil 1- avgust holatiga ko‘ra
(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)



O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012- yil 25- sentabrdagi “Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi 274-son qaroriga muvofiq korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri bazasi yuritiladi.

Mamlakatimizda oxirgi yillarda tadbirkorlik subyektlariga ko'rsatilayotgan e'tibor

Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida, oxirgi yillarda Prezidentimizning ko'plab farmon va qarorlari qabul qilindi.

Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning joylardagi markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) devoni tashkil qilindi.


Barcha hududlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib, hal etishga ko'maklashadigan Bosh vazir qabulxonalari tashkil etildi. Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi.

Oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini yanada rivojlantirish va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida yaratib berilayotgan shart-sharoitlar va qulayliklar natijasida faoliyat ko'rsatayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan korxonalar va tashkilotlar soni yildan-yilga sezilarli ravishda oshib bormoqda.

Korxonalar va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida, 2020- yil 1- avgust holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni


(1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)



Mamlakatimizda qulay ish-bilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbqiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Korxonalar va tashkilotlar soni

(2020- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)



Yuridik shaxs:

Yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da'vogar va javobgar bo'la oladigan tashkilot **yuridik shaxs** hisoblanadi.

Ro'yxatdan o'tgan tijorat korxonalarini soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2020- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)

12 137



Mas'uliyati cheklangan jamiyat

1 711



Oilaviy korxonona

160



Unitar korxonona

9 291



Xususiy korxonona

46




Aksiyadorlik jamiyati

386




Boshqalar

Mas'uliyati cheklangan jamiyat birlik



Xususiy korxonona birlik



Mas'uliyati cheklangan jamiyat

Bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyati mas'uliyati cheklangan jamiyat deb hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zlari qo'shgan hissalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.

Mas'uliyati cheklangan jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagan ishtirokchilari, jamiyat majburiyatlari bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismining qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar.

Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2020-yil 1-avgust holatiga ko'ra, birlikda)

44
aksiyadorlik
jamiyati

157
unitar korxonalar

1 633
oilaviy korxonalar

8 902
xususiy korxonalar

11 769
mas'uliyati
cheklangan jamiyat

352
Boshqa turlar

22 857
Jami tijorat
korxonalarini

Aksiyadorlik jamiyati:


Ustav fondi muayyan aksiyalar soniga bo'lingan jamiyat aksiyadorlik jamiyati hisoblanadi; aksiyadorlik jamiyatining ishtirokchilari (aksiyadorlar) uning majburiyatlari bo'yicha javob bermaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zarar uchun o'zlariga qarashli aksiyalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.

Aksiyalar haqini batamom to'lamagan aksiyadorlar aksiyadorlik jamiyatining majburiyatlari bo'yicha o'zlariga qarashli aksiyalar qiymatining to'lanmagan qismi doirasida solidar javobgar bo'ladilar.


Aksiyadorlik jamiyatining firma nomida jamiyatning nomi hamda bu jamiyat aksiyadorlik jamiyati ekanligi o'z ifodasini topishi kerak.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni


(yanvar-iyul oylarida, birlikda)



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, yanvar-iyul oylarida, birlikda)




Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha tarkibi (2020- yil yanvar-iyul oylarida, umumiy sonidagi ulushi)




2020- yilning yanvar-iyul oylarida 3 062 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi. Shundan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 1 779 ta, xususiy korxonalar – 730 ta, oilaviy korxonalar – 394 ta, muassasalar – 44 ta va boshqalar – 115 tani tashkil etdi.

Qishloq, oʻrmon va baliq xoʻjaligida faoliyat koʻrsatayotgan korxonalar va tashkilotlar


(2020-yil 1-avgust holatiga koʻra, birlikda)




Kichik tadbirkorlik subyektlari soni




Mikrofimlar




Kichik korxonalar




Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




Oilaviy korxonalar



Faoliyat koʻrsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni




Xususiy korxonalar




Sanoat yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(2020-yil 1-avgust holatiga ko'ra, birlikda)




Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **16,0** foizga oshdi




Kichik tadbirkorlik subyektlari




16,2 foizga oshdi



Mikrofirmalar




Kichik korxonalar




Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar



15,7 foizga oshdi



Oilaviy korxonalar




74,0 foizga oshdi



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



O'tgan yilga nisbatan **11,8** foizga oshdi



Xususiy korxonalar




3,7 foizga oshdi



Qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)




Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **12,0** foizga oshdi




Kichik tadbirkorlik subyektlari soni




12,1
foizga oshdi



Mikrofimlar




Kichik korxonalar



Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




16,7
foizga oshdi



Oilaviy korxonalar




28,6
foizga oshdi



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni




O'tgan yilga nisbatan
37,5 foizga oshdi



Xususiy korxonalar




5,8
foizga oshdi



Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)




Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **22,8** foizga oshdi




Kichik tadbirkorlik subyektlari soni




22,9
foizga oshdi



Mikrofirkmalar




Kichik korxonalar



Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




32,1
foizga oshdi



Oilaviy korxonalar




96,2
foizga oshdi



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



O'tgan yilga nisbatan
72,2 foizga oshdi




Xususiy korxonalar



2019- y.


2020- y.



11,0
foizga oshdi



Oilaviy korxonalar soni (1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)



Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2020- yilning 1- avgust holatiga ko'ra, 1 711 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 669 taga yoki 64,2 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 1 633 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 624 taga yoki 61,8 % ga oshganligini ko'rish mumkin.


2020- yil yanvar- iyul oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 399 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 24 taga oshgan.

Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni (1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)

Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2020- yilning 1- avgust holatiga ko'ra, 12 137 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2 279 taga yoki 23,1 % ga oshganligini ko'rish mumkin.


Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 11 769 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2 160 taga yoki 22,5 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2020- yil yanvar-iyul oylarida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 1 779 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 80 taga kamayganligini ko'rish mumkin.



Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni

(2020- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)




Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni 2020- yil 1- avgust holatiga ko'ra, 211 tani tashkil etib, ulardan 207 tasi yoki 98,1 % faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 51 taga yoki 31,9 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2020- yil yanvar-iyul oylarida viloyatimizda 18 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi.


Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar-iyul oylarida, birlikda)




Kichik tadbirkorlik subyektlari soni

(2020- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni

(1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)

	2017- yil	2018- yil	2019- yil	2020- yil
Jami	6 613	7 501	9 609	11 769
<i>shu jumladan:</i>				
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	1 189	1 352	1 749	2 300
Sanoat	899	1 023	1 483	1 716
Qurilish	1 155	1 384	1 714	2 001
Savdo	1 779	1 959	2 476	3 272
Tashish va saqlash	496	514	627	678
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	203	234	297	337
Axborot va aloqa	97	113	143	156
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	85	118	150	202
Boshqa turlar	710	804	970	1 107


Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni

(1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)

	2017- yil	2018- yil	2019- yil	2020- yil
Jami	494	619	1 009	1 633
<i>shu jumladan:</i>				
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	102	107	170	266
Sanoat	122	180	312	543
Qurilish	9	11	14	18
Savdo	84	100	183	359
Tashish va saqlash	9	10	9	12
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	95	119	200	278
Axborot va aloqa	1	2	8	11
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	11	15	31	32
Boshqa turlar	61	75	82	114

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)



**Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi
faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni**
(2020- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)

	Jami	shundan:	
		qo'shma korxonalar	xorijiy korxonalar
Qashqadaryo viloyati	207	150	57
Qarshi sh.	53	44	9
Shahrisabz sh.	5	1	4
tumanlar:			
G'uzor	11	9	2
Dehqonobod	12	9	3
Qamashi	13	8	5
Qarshi	16	10	6
Koson	19	13	6
Kitob	17	11	6
Mirishkor	6	5	1
Muborak	10	7	3
Nishon	13	12	1
Kasbi	5	3	2
Chiroqchi	8	7	1
Shahrisabz	6	4	2
Yakkabog'	13	7	6

Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri – axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqti-vaqti bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 275- son qarorining 1- ilovasiga muvofiq kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri

The screenshot displays the official website of the State Statistical Committee of the Republic of Uzbekistan. The main navigation bar includes links for 'ASOSIY SAHIFA', 'QO'MITA HAQIDA', 'AXBOROT XIZMATI', 'INTERAKTIV XIZMATLAR', 'OCHIQ MA'LUMOTLAR', 'MUHOJATLAR', and 'KONTAKTLAR'. The central content area features a dropdown menu for 'Xizmatlar ro'yxati' with options: 'Elektron hisobot', 'KTYaDR ma'lumotlari', 'Uslubiy materiallar', 'Statistik klassifikatsiyalar', 'Taqdim etiladigan hisobotlar ro'yxati', and 'Korxonalar pasporti'. The 'Korxonalar pasporti' option is selected, leading to a form for entering the STIR code. The form includes a label 'STIR kodini kiriting', a text input field, and a 'Qidiruv' button. Below the input field, there is a note: 'Kodni yangilash uchun rasimga bosing'. To the left, the 'RASMIY STATISTIKA' section lists various statistical services. To the right, the 'FOYDALI MA'LUMOTLAR' section provides links to reports and materials.

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining www.stat.uz va Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasining www.qashstat.uz rasmiy saytlarida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi
Statistik registrarni
yuritish bo'limi
Tel.:(75) 220-03-98